

ABDULLA QODIRIY-O'ZBEK ROMANCHILIGI ASOSCHISI

Tursunova Saida Djamalidinovna

Toshkent viloyati Toshkent tumani MMTB qarashli 6-umumiy o'rta ta'lim maktabi
oliy toifali ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15237682>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Abdulla Qodiriyning o'zbek adabiyotidagi beqiyos o'rni, xususan, uning romanchilik janriga qo'shgan ulkan hissasi qo'shgan. Muallif "O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon" romanlari orqali o'zbek nasrida yangi bosqich boshlab bergan adibning tarixiy voqealarni badiiy talqin qilishdagi yondashuvi, ijtimoiy va ma'naviy masalalarni qamrab olish uslubi haqida atroflicha to'xtaladi. Maqolada Qodiriyning obraz yaratish mahorati, milliy uyg'onish g'oyalari, xalqparvarlik pozitsiyasi, shuningdek, uning fojiaiy taqdiri haqida ham fikr yuritiladi. Maqola natijasida yozuvchining o'zbek romanchiligining asoschisi sifatidagi mavqei va ijodiy merosining bugungi adabiy jarayondagi ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Abdulla Qodiriy, o'zbek romanchiligi, "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon", tarixiy roman, jadidchilik, ma'rifatparvarlik, milliy uyg'onish.

ABDULLA QODIRIY - FOUNDER OF UZBEKI NOVELISM.

Abstract. This article discusses the incomparable place of Abdulla Qodiriy in Uzbek literature, in particular, his great contribution to the genre of the novel. The author dwells in detail on the approach to the artistic interpretation of historical events, the way of covering social and spiritual issues of the writer, who opened a new stage in Uzbek prose with the novels, "O'tkan kunlar" and "Mehrobdan chayon". The article also discusses Qodiriy's skill in creating images, ideas of national revival, nationalist position, as well as his tragic fate. As a result of the article, the writer's position as the founder of Uzbek novelism and the significance of his creative heritage in today's literary process are revealed.

Keywords: Abdulla Qodiriy, Uzbek novelism, "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon", historical novel, Jadidism, Enlightenment, national revival.

АБДУЛЛА КАДИРИ – ОСНОВАТЕЛЬ УЗБЕКСКОГО РОАНИЗМА

Аннотация. В статье рассматривается несравненная роль Абдуллы Кадыри в узбекской литературе, в частности, его большой вклад в жанр романа. Автор подробно рассматривает подход к художественной интерпретации исторических событий и освещение социальных и духовных проблем писателя, положившего начало новому этапу в

узбекской прозе через романы «Минувшие дни» и «Мехробдан шаён». В статье рассматриваются имиджмейкерское мастерство Кадыри, идеи национального возрождения, его популистская позиция, а также его трагическая судьба. В статье раскрывается положение писателя как основоположника узбекской прозаики и значение его творческого наследия в современном литературном процессе.

Ключевые слова: Абдулла Кадыри, узбекский роман, «Минувшие дни», «Скорпион из алтаря», исторический роман, джадидизм, Просвещение, национальное возрождение.

Kirish

O'zbek adabiyotining shakllanishi va taraqqiyotida muhim bosqichlardan biri – bu nasr janrining, ayniqsa, romanchilikning vujudga kelishidir. Bu yo'nalishda ilk poydevorni yaratgan, o'zbek romanchiligining asoschisi sifatida tan olingan buyuk adib – Abdulla Qodiriy hisoblanadi.

U o'zining betakror ijodi, tarixiy voqealarga asoslangan badiiy asarlari orqali o'zbek nasrini yangi bosqichga olib chiqqan, uni xalq hayoti, ruhiyati va ijtimoiy muammolari bilan boyitgan ijodkordir. Abdulla Qodiriy XX asr boshlarida yashab ijod qilgan bo'lsa-da, uning qalamiga mansub asarlar bugungi kungacha o'z dolzarbligini yo'qotmagan. U milliy adabiyotimizga birinchi marta roman janrini olib kirgan, xalqning og'ir taqdirini, erkinlik va ma'rifat sari intilishlarini yuksak badiiylik bilan aks ettirgan. Ayniqsa, "O'tkan kunlar" romani o'zbek adabiyotining durdonasi bo'lib, unda nafaqat tarixiy voqealar, balki insoniy kechinmalar, muhabbat, vatanparvarlik, milliy g'urur kabi yuksak tuyg'ular mahorat bilan tasvirlangan.

Qodiriy o'z ijodi bilan o'zbek xalqining o'tmishiga nazar soladi, uning dardu hasratlarini, orzu-umidlarini badiiy tahlil qiladi. Shu boisdan ham u yaratgan obrazlar, voqealar zamonaviy o'quvchi qalbiga ham yaqin va tushunarli. Adib o'z davrining ijtimoiy, siyosiy muammolarini chuqur anglagan holda, ularni badiiy asarlar orqali xalq ongiga singdirishga harakat qilgan.

Uning asarlari faqat adabiy emas, balki tarixiy, falsafiy va tarbiyaviy jihatdan ham katta ahamiyatga ega.

Shunday qilib, Abdulla Qodiriy nafaqat birinchi o'zbek romanchisi, balki o'zbek adabiy tafakkurida yangi ufqlar ochgan ulkan ijodkordir. Uning merosi nafaqat o'z davri, balki bugungi avlodlar uchun ham ibrat maktabi bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metod

XX asr yangi o'zbek adabiyotining ulkan namoyondasi, o'zbek romanchiligining asoschisi, 20- yillardagi muhim ijtimoiy-madaniy jarayonlarning faol ishtirokchisi, publitsist, hajv ustasi, tilshunos va tarjimon Abdulla Qodiriy 1894-yil 10-aprel kuni Toshkent shahrining Eskijo'va mahallasida, bog'bon oilasida dunyoga kelgan. Yozuvchi o'zi haqida shunday eslaydi: «Har holda bemavridroq bo'lsa kerak, kambag'al, bog'bonlik bilan kun kechirguchi bir oilada tug'ilg'onman», deydi u o'z tarjimai holida, - Yoshim to'qqiz-o'nlariga borg'ondan so'ng meni maktabga yubordilar. Maktabda ikki uch yil chamasi eski usulda o'qib, keyingi vaqtlarda oilamizning nihoyatda qashshoq kun kechirgani vajhidan o'n ikki yoshimda meni bir bo'g'a xizmatchilikka berdilar. Xo'jayinim o'zi savdogar kishi bo'lib, o'rischa yozuv-chizuv biladurg'on odamga muhtoj edi. Shu ta'ma bo'lsa kerak, meni o'ris maktabga yubordi.

Shu miyonlardan bozor vositasi bilan tatarlardan chiqadurg'on gazetalarni o'qib, dunyoda gazeta degan gap borlig'iga imon keltirdim. 1913 yilda o'zbekcha «Sadoi Turkiston», «Samarqand», «Oina» gazetolari chiqa boshlag'och, menda shularga gap yozib yurish fikri uyg'ondi. 1913 yilda chiqqan «Padarkush» ta'sirida «Baxtsiz kuyov» degan teatr kitobini yozib yuborg'animni o'zim ham payqamay qoldim (1915 yilda). Yana shu yilda teatrlarda chiqib turg'on hikoyalarga taqlidan «Juvonboz» otliq hikoyachani yozib noshir topilmag'onidan, o'zim nashr qilib yubordim. Nikolay taxtdan yiqilg'ondan keyin oddiy xalq militsiyasiga ko'ngilli bo'lib yozildim. 1918 yil boshlarida eski shahar oziq komiteti boylar qo'lidan olinib, komitetning raislig'iga o'rtoq Sultonxo'ja Qosimxo'jaev tayin qiling'on edi va men mazkur komitetning o'zbekcha sarkotibligiga kirdim. «Mushtum» jurnalining muannisi va tahririya a'zosi bo'lib, to 1924 yilgacha mehnatkashlar manfaatiga xolis ishlab keldim. Shu o'tgan yetti yil orasida Sho'rolar hukumati va firqadan bir og'iz tanbeh olmadim. Xulosa — boshqalarning xizmati daftar bilan sobit bo'lsa, mening xizmatlarim matbuot bilan ravshandir.

Ishchi-dehqonlar yozg'on asarlarimni suyunib o'qiydilar va meni yozuvchilar qatoriga kirgazdilar va meni hamon o'qirlar va unutmaslar.» Bo'lg'usi adibning ilk ijodi 1913—1914 yillarda boshlangan bo'lib, dastlab u shoir sifatida qalam tebratdi. Uning «Ahvolimiz», «Millatimga», «To'y» (1914-1915) kabi she'rlari «Oina» jurnalida bosilib chiqqan edi. U o'z millatini ma'rifatga chaqiradi, ma'rifatparvar shoir va adib sifatida maydonga chiqadi. «Baxtsiz kuyov» (1915) nomli fojeasi, «Juvonboz» (1915), «Uloqda» (1916) kabi hikoyalarida ham o'z xalqini savodli, bilimli, madaniyatli va ozod ko'rish istagi sezilib turadi. 1924 yili Abdulla Qodiriy Moskvaga borib, Jurnalistlar institutida tahsil oldi.

Moskvadan qaytib «Mushtum» jurnalida shtatsiz muxbir bo'lib ishlay boshladi. Uning «Toshpo'lat tajang nima deydi?» va «Kalvak mahzumning xotira daftaridan» turkumidagi satirik hikoyalari ana shu jurnalda ilk bor bosilib bordi. Abdulla Qodiriy 1917-1918 yillardan boshlab «O'tgan kunlar» romani uchun material yig'ishga kirishdi. 1922 yilda birinchi o'zbek romanining dastlabki boblari «Inqilob» jurnalida chop etila boshlandi. 1925-1926 yillarda «O'tgan kunlar» uch bo'lim holida kitob bo'lib nashr etildi. 1928 yil yozuvchining ikkinchi tarixiy romani «Mehrobdan chayon» nashrdan chiqdi. 1934 yilga kelib Abdulla Qodiriy qishloq xo'jaligi mavzuiga bag'ishlangan «Obid ketmon» qissasini yaratdi. Undan tashqari u Gogolning «Uylanish», Chexovning «Olchazor» va boshqa g'arb yozuvchilarining satirik hikoyalarini o'zbek tiliga tarjima qildi. Abdulla Qodiriy 1934 yilda bo'lib o'tgan Moskvadagi Butunittifoq Yozuvchilarining birinchi qurultoyida qatnashadi. U «Amir Umarxonning kanizi», «Namoz o'g'ri», «Dahshat» kabi romanlar yaratish orzusida bo'lgani ham ma'lum. Ammo bevaqt o'lim orzulari ro'yobga chiqishiga imkon bermadi.

Abdulla Qodiriy 1937 yilning 31 dekabrda qamoqqa olindi. «Menga qo'yilgan ayblarni boshdan oyoq rad etaman. Haqiqat yo'lida hech qanday jazodan, qiynoqdan qo'rqmayman. Agar otmoqchi bo'lsalar, ko'kragimni kerib turaman.» Abdulla Qodiriy 1938 yil 4 oktyabrda Toshkentda otildi. Abdulla Qodiriy o'z davrining ilg'or bir ziyolisi sifatida Vatan va millat taqdiri xususida qayg'urdi. Zamon taloto'plari adib qalbini iztirobga soldi. «O'tkan kunlar» romani orqali xalqning milliy ongini uyg'otmoqchi, «tariximizning eng kir, qora kunlari»- yurtni mustamlaka balosiga yo'liqtirgan keyingi noahil «xon zamonlari»dan so'z ochib, bu ayanchli haqiqatdan xalqqa saboq bermoqchi bo'ldi Abdulla Qodiriy qalamiga mansub O'tkan kunlar, ba'zi manbalarda O'tgan kunlar roman – o'zbek adabiyotidagi birinchi roman hisoblanadi. Adib romanni yozishda arab yozuvchisi Jurji Zaydon asarlaridan ilhomlangan. Roman 1920-yillar boshida yozilgan bo'lib, 1922-yil ilk bor „Inqilob“ jurnalida chop etilgan va 1926-yilda alohida kitob holida chiqarilgan. Adibning badiiy so'zida betakror joziba mujassam bo'lgani bois «O'tkan kunlar»ni necha bor o'qisa ham, odam to'ymaydi, qayta mutolaaga ehtiyoj sezaveradi. Roman o'quvchini zeriktirmaydi.

Qayta o'qish jarayonida asarning yangidan-yangi qirralari ochiladi. Bir o'qilganda e'tiborsiz o'tilgan epizodlarga boshqa safar diqqat qaratiladi. Bu hol, tabiiyki, adibning obraz yaratish mahoratiga, inson qalbini chuqur anglashiga daxldordir. Zero, ko'rkam adabiyotdek san'at dunyosida badiiy so'z — poetik nutq muhim sanaladi: so'z vositasida manzara, ruhiyat va obraz chiziladi.

“O‘tgan kunlar” romanidagi obrazlarning har biri o‘zicha bir olamki, ular hech qachon bir-birini takrorlamaydi. Ularning hammasi ham yuksak darajada mahorat bilan yaratilgandir.

Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” asari - o‘zbek romanchiligining birinchi cho‘qqisidir. Abdulla Qodiriy asarlarida milliy ruh va folklor an‘analari uyg‘unlashib, ijodkorning o‘ziga xos, betakror uslubini namoyon qiladi. Umumun olganda, Abdulla Qodiriyning nafaqat “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” romanlariyu, “Obid ketmon” qissasi, balki “Ahvolimiz”, “To‘y”, “Millatimga”, “Fikr aylagil” kabi she‘rlarida, “Juvonboz”, “Uloqda”, “Jinlar bazmi” kabi hikoyalarida, “Baxtsiz kuyov” dramalarida ham milliy ruh hukmronlik qiladi.

Abdulla Qodiriy tarixga chuqur hurmat bilan qaragan yozuvchi edi. U "O‘tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon" kabi asarlarini yaratishda o‘sha davr hayotini, urf-odatlarini, siyosiy tuzumini aniq va to‘g‘ri tasvirlash uchun tarixiy manbalarni, xalq og‘zaki ijodini va yozma hujjatlarni puxta o‘rganadi. Ayniqsa, XIX asr Buxoro, Qo‘qon va Xiva xonliklari davridagi ijtimoiy hayotni chuqur o‘rgangan.

Qodiriy asarlarida tarixni idealashtirmaydi, balki uni real hayotiylikda aks ettiradi. U tarixni o‘rganish orqali o‘zbek xalqining o‘zligini anglash, milliy ruhni tiklash, mustaqil tafakkurni shakllantirishni maqsad qilgan. Bu yondashuv o‘zbek adabiyotida tarixiy romanning rivojlanishiga zamin yaratdi.

1925-yilda ilk bor to‘liq nashr etilgan “O‘tkan kunlar” romani o‘zbek adabiyotining chinakam romanchilik sari tashlangan katta qadami bo‘ldi. Romanning syujeti muhabbat, fidoiylilik, ma‘rifatparvarlik kabi mavzular atrofida qurilgan bo‘lsa-da, asarda xalqning ijtimoiy hayoti, urf-odatlari, diniy tushunchalari, ayollar masalasi kabi dolzarb muammolar ham keng yoritilgan. Asarning markaziy qahramoni – Otabek obrazi orqali yozuvchi ma‘rifatli, adolatparvar, yangicha fikr yuritadigan avlod timsolini yaratadi. Otabek o‘z davrining ijtimoiy hayotiga zid fikrda yashasa ham, o‘z prinsiplariga sodiq qoladi. Kumush obrazi esa o‘z davrining ayol timsoli sifatida o‘ziga xos kuchli xarakterga ega, sabr-toqatli, sadoqatli, milliy madaniyatga hurmat bilan qaraydigan qahramon sifatida gavdalanadi.

Bu roman 1929-yilda yozilgan bo‘lib, ko‘proq diniy mutaassiblik, jaholat va adolatsizlikka qarshi yozilgan asar sifatida qadrlanadi. Unda Qodiriy islom dini niqobi ostida xalqni ezayotgan, o‘z manfaatlarini xalqdan ustun qo‘ygan ruhoniylar, nohaq qozilar obrazini tanqidiy ruhda tasvirlaydi. Asar bosh qahramoni Saidahmadning fojiali taqdiri orqali yozuvchi jamiyatdagi illatlarni ochib beradi.

“Mehrobdan chayon” o‘zbek adabiyotida fosh etuvchi roman sifatida katta o‘ringa ega.

Unda fojia orqali haqiqatga eltuvchi yo‘l ko‘rsatiladi. Qodiriy bu asari bilan nafaqat muayyan davr muammolarini ochib beradi, balki umuminsoniy qadriyatlar, adolat, halollik, poklik kabi tushunchalarni ilgari suradi.

Qodiriyning butun ijodiy faoliyati milliy uyg‘onish ruhida kechgan. U jadidlar harakati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan adib sifatida xalqni uyg‘otishga, ilm-fanga, ma‘rifatga da‘vat etgan. Uning asarlarida qadriyat, til, din, millat, ona yurt tushunchalari o‘ta muhim o‘rin tutadi.

U xalqni yuksalishga da‘vat etar ekan, bu yo‘ldagi asosiy kuch sifatida o‘qish, o‘rganish, tafakkur qilishni targ‘ib qilgan. Qodiriy “qalam” qudratiga ishongan adib edi. U badiiy so‘z orqali insonni tarbiyalash, jamiyatni isloh qilish mumkinligiga chuqur ishonardi. Uning bu qarashlari hozirgi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan.

Qodiriy ijodi va shaxsiyati mustabid tuzum vakillarini bezovta qilgan edi. U xalq dardi bilan yashagan, haqiqatni aytishdan cho‘chimagan. Afsuski, bu jasorat uni fojiali taqdir sari yetakladi. 1937-yilda tuhmat asosida hibsga olinib, 1938-yilda qatag‘on qurboni bo‘ldi. Unga "xalq dushmani" tamg‘asi bosildi, asarlari taqiqlanib, nomi qora ro‘yxatlarga kiritildi. Biroq adabiyot haqiqatni unutmaydi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, Abdulla Qodiriyning nomi tiklandi, asarlari yana chop etila boshladi, adibga nisbatan katta hurmat tiklandi. Bugungi kunda Qodiriy hayoti va ijodi haqida ilmiy ishlar, monografiyalar yozilmoqda, yodgorliklar o‘rnatilgan.

Xulosa

Abdulla Qodiriy – o‘zbek adabiyotining eng yorqin siymolaridan biri bo‘lib, u o‘zining noyob ijodi orqali o‘zbek romanchiligiga poydevor qo‘ygan, xalqimizning tarixiy xotirasini badiiy so‘z vositasida jonlantirgan ulug‘ adibdir. U yaratgan romanlar – “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” – nafaqat o‘zbek nasrining ilk namunasi, balki xalqning ruhiy olami, orzu-intilishlari va fojialarini aks ettiruvchi bebaho adabiy merosdir. Qodiriy badiiy so‘z orqali xalq qalbini uyg‘otishga, tarixni teran anglashga, erkin fikrlashga undadi. U milliy o‘zlik, ijtimoiy tenglik, ma‘naviy uyg‘onish g‘oyalarini asarlari orqali targ‘ib qildi. Tarixga, xalq og‘ushiga, hayot haqiqatlariga sadoqat bilan yondashgan adib, bugungi avlod uchun ham ibrat namunasi bo‘lib qolmoqda. Bugun Abdulla Qodiriy nafaqat romanchilik asoschisi, balki millatparvar, haqiqatgo‘y, xalqparast ijodkor sifatida qadrlanadi. Uning asarlarini o‘rganish, tahlil qilish va yosh avlodga yetkazish bizning muqaddas burchimizdir. Zero, xalqining dardini yozgan, tarixini ko‘rsatgan, ruhini kuylagan adiblar hech qachon unut bo‘lmaydi.

REFERENCES

1. Qodiriy, A. (2012). *O'tkan kunlar*. Toshkent: "G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti".
2. Qodiriy, A. (2012). *Mehrobdan chayon*. Toshkent: "G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti".
3. Yo'ldoshev, S. (2005). *Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi*. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti.
4. Qosimov, B. (2004). *O'zbek romanchiligi tarixidan*. Toshkent: Fan.
5. G'aniyeva, H. (1994). *XX asr o'zbek adabiyoti*. Toshkent: O'qituvchi.
6. Karimov, I. (1996). *Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q*. Toshkent: O'zbekiston.
7. Haydarova, S. (2018). "Abdulla Qodiriyning romanchilik san'atidagi o'rni va yondashuvi". // *O'zbek tili va adabiyoti* jurnali, №2.